“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI XODIMLARINI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA O‘QITILISHINI TASHKIL QILISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

Toshkent

So‘zboshi

1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

2 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2026.07.09 dagi 215-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

3 BIRINCHI BOR KIRITILGAN

Tasdiqlayman

“O‘zbekiston MET” AJ
boshqaruvi raisi

A.A. Nazirov

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI XODIMLARINI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA O‘QITILISHINI TASHKIL QILISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Amalga kiritish sanasi 2026.10.09

1 Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu uslubiy qo‘llanma (keyingi o‘rinlarda – “Uslubiy qo‘llanma”) “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “Jamiyat”) xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish borasidagi tavsiya va yo‘riqlar berilgan ichki me’yoriy hujjati hisoblanadi.

1.2 Ushbu Uslubiy qo‘llanmani amalga oshirish, hisobini yuritish va nazorat qilish uchun Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi, shuningdek, jarayonga jalb qilingan Jamiyatning boshqa department, boshqarma, bo‘lim, xizmat, ofis va filiallari mas’uldir.

1.3 Ushbu Uslubiy qo‘llanma korrupsiyaviy huquqbuzaliklarning oldini olish, korrupsiya sodir bo‘lishiga olib keladigan sabablarni bartaraf qilish, xodimlarda huquqiy ongni rivojlantirish hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlariga qat’iy rioya etadigan qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

1.4 Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish dasturlari va materiallari ushbu Uslubiy qo‘llanmaga asosan ishlab chiqilishi kerak.

1.5 Uslubiy qo‘llanmaning maqsadi quyidagilardan iborat:

– Korrupsiyaga qarshi o‘qitishning asosiy qoida va vazifalarini belgilab berish;

Korrupsiyaga qarshi o‘qish tashkil qilish uchun mas’ul shaxslarni tayinlash;

Korrupsiyaga qarshi o‘qish turlari, muddati va dasturlarini tasdiqlash.

1.6 Jamiyat markaziy apparati va uning hududiy filiallari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga va ushbu Uslubiy qo‘llanmaga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmaydigan shaklda, o‘z xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish uslubiy qo‘llanmalarini ishlab chiqishlari mumkin.

2 Korrupsiyaga qarshi o‘qitishning asosiy qoida va vazifalari

2.1 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qitish quyidagi qoidalarga asoslanib tashkil etiladi va o‘tkaziladi:

– **Xolislik va ilmiylik:** korrupsiyaga qarshi o‘qish materiallarini tayyorlashda mas’ul shaxslar ularning ilmiy dalillarga asoslangan, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro qonunchilikka mos bo‘lishini ta’minlaydilar;

– **Hayotga bog‘liqlik:** Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish yo‘li, usuli va materiallari hayotga bog‘lanadi, ya’ni, hayotda bo‘lgan vaziyatlarga asoslanadi, bundan tashqari, xodimlar olingan materialni qay darajada tushungani hamda bilganlarini hayotda bo‘ladigan vaziflarni hal qilish uchun qo‘llay olishlari tekshiriladi;

– **Muntazamlik va tartib:** korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha materiallar, shuningdek, Jamiyat xodimlarini o‘qitish tartibi muntazam amalga oshiriladi, ma’lum tartib va mantiqqa asoslanadi. O‘qitish umumiy tushunchalar va holatlardan bitta tashkilotga tegishli tushuncha va holatlarga o‘tib, oddiydan murakkabga, boshlang‘ich darajadan yuqori darajaga chiqib o‘tkaziladi va h/k.;

– **Soddalik:** korrupsiyaga qarshi o‘qitishda Jamiyat xodimlarining hozirgi bilimi va o‘quvi e’tiborga olinib, Jamiyat xodimlarining hammasi oson tushunadigan, sodda o‘qitish materillarini tuzib o‘tkaziladi;

– **Har xil yondoshish:** Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitishda aniq bir jarayondagi/faoliyat yo‘nalishidagi korrupsiya xavfini baholash natijasi e’tiborga olinadi. Korrupsiya xavfi yuqori lavozimlarda ishlaydigan xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus darslarda qo‘shimcha o‘qitiladi;

– **O‘qitish usuli va shaklini doim takomillashtirish:** korrupsiyaga qarshi o‘qitishni tashkil qilganda Jamiyat eng samarali ta’lim texnologiyalarini ishlatishga harakat qiladi, shu jumladan, olingan bilimni tekshiradigan eng samarali usullarni qo‘llaydi.

2.2 O‘qitish shakli va usullarini belgilaganda hamda korrupsiyaga qarshi o‘qitish materiallarini tayyorlaganda Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati korrupsiyaga qarshi o‘qitish uchun mas’ul shaxslar birinchi o‘rinda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

– korrupsiyaning mohiyati, ko‘rinishlari, jamiyat hayotining turli sohalarida qanday turlari bo‘lishi, Jamiyatda bo‘ladigan ish jarayonlarida va u ishlaydigan yo‘nalishlarda korrupsiyaning qanday turlari uchrashi, uning sababi, xalqqa, davlatga qanday zarari bo‘lishi haqida umumiy tasavvur paydo qilish;

– Jamiyatda ishlaydigan xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga qat’iy va to‘liq amal qilishga, Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashni axloqiy qadriyat deb tushunishga, Odob-axloqda belgilangan qoidalarni bajarishni to‘g‘ri deb bilishga o‘rgatib, ularda korrupsiyaga qarshi Siyosat va Jamiyatning boshqa ichki me’yoriy hujjatlaridagi talablarga amal qilishga asoslangan xulq namunasini paydo qilish;

– Jamiyatda ishlaydigan xodimlarga Jamiyatda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari va talablarini o‘rgatish;

– korrupsiya xavfi amalga oshishiga yordam beradigan hollarni aniqlash va ularning oldini olish o‘quvini paydo qilish, korrupsiyaga toqatsiz bo‘lishni

o‘rgatish;

– Jamiyat xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq korrupsiya qonunchiligini buzgan xodimlar javobgarlikka (shu jumladan, fuqarolik-huquqiy, intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka) tortilishi yuzasidan tushuntirishlar berish.

3 Mas’ul xodimlar va o‘qish bo‘ladigan vaqt oralig‘i

3.1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish rejasini tuzadi, korrupsiyaga qarshi o‘qitishga tegishli o‘quv materillarini ishlab chiqadi, o‘qish o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qitish monitoringini o‘tkazadi va nazorat qiladi.

3.2 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi va Jamiyatning boshqa departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, ofis va filiallari Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qish tashkil etish va uni o‘tkazish (shuningdek, o‘qish jadvalini tuzish, korrupsiya xavfi ko‘proq bo‘ladigan lavozimlar ro‘yxatidagi xodimlarni o‘qitishga yordam berish) uchun jalb etadi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi o‘tkaziladigan o‘qishlarga Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari xodimlarini taklif qiladi.

3.3 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati Jamiyatning tovar (ish, xizmat) xarid Nizomi talablariga muvofiq raqobatli tanlov o‘tkazib, o‘qitish materiallarini ishlab chiqish va korrupsiyaga qarshi o‘qitishga shu sohada tajribasi bor uchinchi shaxslarni ham taklif qilishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi uyushtiriladigan tadbirlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari xodimlarini ham taklif qilishi mumkin.

3.4 Korrupsiyaga qarshi o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki me’yoriy hujjatlarida belgilangan majburiy malaka oshirish

o‘quvlaridan va uchinchi tomon vakillari (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi davlat organ va muassasalari vakillari) bilan birga uyushtirilgan anjumanlar, yig‘ilishlar, simpoziumlardan alohida, mustaqil ravishda o‘tkaziladi.

3.5 Tarkibiy tuzilma rahbarining o‘zi korrupsiyaga qarshi masala ko‘rilgan biror tadbirda ishtirok etganidan keyin o‘z rahbarligidagi xodimlarga shu tadbirda ko‘rilgan masalalar haqida ma’lumot/material tarqatishi to‘liq ma’nodagi korrupsiyaga qarshi o‘qitish hisoblanmaydi.

3.6 Korrupsiyaga qarshi o‘qitish Jamiyatda yiliga kamida bir marta, quyidagi hollarda esa ko‘proq o‘tkaziladi:

– xodim korrupsiya xavfi ko‘proq bo‘ladigan lavozimda ishlasa;

boshqa ishga tayinlanganda yoki ish joyi o‘zgarganda yangi lavozim korrupsiya xavfi ko‘proq bo‘ladigan ishlar ro‘yxatiga kiradigan bo‘lsa;

Jamiyatda korrupsiya qonunchiligi buzilgan holatlar ma’lum bo‘lsa yoki biznes jarayondagi korrupsiya xavfi ko‘paysa;

korrupsiyaga qarshi tadbirlar, siyosat va tartib jiddiy o‘zgarganda;

– korrupsiyaga qarshi tegishli choralar, siyosat va tartib-qoidalar qo‘llaniladigan xodimlar uchun;

– Boshqaruv raisi va/yoki Kuzatuv kengashi a’zolari tegishli qaror chiqargan hollarda.

3.7 Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimga yangi ishga qabul qilingan yoki o‘tkazilgan (korrupsiya xavfi matritsasiga muvofiq) xodimlar ishga qabul qilingan yoki o‘tkazilgan paytdan boshlab yiliga ikki marta korrupsiyaga qarshi tayyorgarlikdan o‘tishlari shart.

Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi mas’ul xodimi 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay, lavozim korrupsiya xavfi ko‘p lavozimlar ro‘yxatida borligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, elektron xat orqali Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga (F.I.SH., lavozimi va tashkilot nomini ko‘rsatib) yangi ishga olingan yoki boshqa lavozimga o‘tkazilgan xodimlar haqida ma’lumot berishi kerak. Ma’lumot olgan vaqtdan boshlab 10 (o‘n) ish kunidan

kechiktirmay Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining rahbari ishga olingan/boshqa ishga o‘tkazilgan xodimlarni (shu jumladan, onlayn o‘qish havolasini yuborgan holda) onlayn yoki offlayn o‘qishga tayinlaydi va xodimga o‘qishga borishi zarur ekanini ma’lum qiladi. O‘qish sanasi belgilanganda yillik o‘qitish rejasi, guruhda bo‘sh joylar borligi (agar o‘qish yaqindan o‘tkazilsa) va shu bandning birinchi xatboshida ko‘rsatilgan muddatga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

3.8 Yillik korrupsiyaga qarshi o‘qitish va korrupsiya xavfi yuqori lavozimlarda ishlaydigan xodimlarni o‘qitish vaqti Jamiyat Boshqaruv raisi tasdiqlaydigan yillik o‘qish jadvalida belgilab qo‘yiladi. Kelasi yilgi o‘qishlar jadvali va o‘qish turini Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi ishtirokida Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tuzadi va 31 dekabrgacha tasdiqlatish uchun Jamiyat Boshqaruv raisiga topshiradi. O‘qish jadvali tuzilganda xodimning oldingi o‘qigan vaqti hisobga olinadi. O‘qish jadvalida o‘qish nomi va turi (onlayn o‘qish, yaqindan yoki masofaviy o‘qish), sanasi va qaysi lavozimda ishlaydiganlar o‘qishi ko‘rsatiladi. Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati o‘qish boshlanishidan kamida 30 kun (o‘ttiz) oldin xodimga o‘qishga kelishi kerakligi haqida bildirgi jo‘natadi. Ko‘rsatilgan vaqtda (ish ko‘paygan mavsum bo‘lgani, ta’tilga chiqqani, betobligi sababli va boshqa uzrli sabab bilan) (offlayn o‘qish uchun) o‘qishga kelishning imkoni bo‘lmaganda xodim ishlaydigan tarkibiy bo‘linma rahbari o‘qish boshlanishidan kamida 10 (o‘n) kun oldin Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga xabar berib, xodimning o‘qishini boshqa kunga o‘tkazishni so‘rashi kerak.

3.9, 3.6-bandlarda ko‘rsatilgan holatlarda korrupsiyaga qarshi o‘qish Jamiyat Boshqaruv raisi va/yoki Kuzatuv kengashi a’zolari belgilagan vaqtda o‘tkaziladi.

3.10 Jamiyat tomonidan tashkil qiladigan korrupsiyaga qarshi o‘qishlar xodimlarni o‘qitish va sinash uchun ishlab chiqilgan alohida modullar

(dasturlar) qo‘llanilgan holda masofaviy shaklda ham o‘tkazilishi mumkin.

4 Korrupsiyaga qarshi o‘qitish turlari va dasturlar

4.1 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qitish quyidagi kurslarda o‘tishi mumkin:

– Hamma xodimlar uchun o‘tkaziladigan kasb axloqi va korrupsiyaga qarshi umumiy o‘quv kursi;

– Korrupsiya xavfi ko‘p bo‘ladigan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘quv kurslari;

– Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi ichki (komplayens) nazorati tizimini rivojlantirish maqsadida mas’ul xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi alohida o‘quv kurslari.

4.2 Kasb axloqi va korrupsiyaga qarshi umumiy o‘quv kursi Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi hamda bu kurslarda xodimlar korrupsiyaga qarshilik qilish borasidagi asosiy bilim va o‘quvlarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining asosiy me’yorlarini, Jamiyat ichki me’yoriy hujjatlarida belgilangan korrupsiya hollarini ko‘rganda bajariladigan qoida va tartibni va korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan shaxslar uchun belgilangan javobgarlikni o‘rganadilar.

4.3 Jamiyat barcha xodimlari uchun o‘tkaziladigan kasb axloqi va korrupsiyaga qarshi umumiy o‘quv kursi hayotga bog‘langan va quyidagilar haqida yangi bilim o‘rgatadigan yoki oldingisini qaytaradigan bo‘lishi kerak:

– korrupsiyaning mohiyati, uning turlari, xususiyati, jamiyat turli sohalarida qanday ko‘rinishlari bo‘lishi, kelib chiqishiga sabab, uning jamiyat uchun xavfi va zarari;

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunlari, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki me’yoriy hujjatlari, shu jumladan, ishda nimalar ta’qiqlangani, cheklangani, xodimga qanday majburiyat yuklanishi va qanday

talablar qo‘yilishi, korrupsiya haqidagi qonun buzilganda Jamiyat qanday harakat qilishi va nima choralar ko‘rishi;

– korrupsiya holatlarini keltirib chiqaradigan hollarni topish, ularni baholash va korrupsiyaning oldini olish;

– manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish, Jamiyat xodimlari, uning kontragentlari va biznes hamkorlarining korrupsion xatti harakatlarini aniqlash va xabardor qilishga qaratilgan asosiy shakllarni to‘ldirish malakasi. Korrupsiyaga qarshi o‘qitish materiallari uchun taxminiy mavzular ushbu Reglamentning A-ilovasida misol tariqasida berilgan.

4.4 Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi o‘qitish darslarida, korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish darslarida o‘rgatiladigan quyidagilar ham o‘tiladi:

– korrupsiya xavfini aniqlash, uni baholash va minimallashtirish usullari;

– korrupsiya xavfi yuqori jarayonlarda korrupsiyaning turlari va ko‘rinishlari.

4.5 Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish darslari korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish darslaridan mustaqil ravishda o‘tiladi.

4.6 Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar ro‘yxatini hamda (ushbu Reglamentning 3.7-bandida ko‘rsatilgan) ularni yillik o‘qitish jadvalini Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi yordamida Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tuzadi va Jamiyat Boshqaruv raisiga tasdiqlash uchun kiritadi.

4.7 Jamiyatning korrupsiyaga qarshi faoliyatini qonunga muvofiqlash va rivojlantirish maqsadida mas’ul xodimlar uchun mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish darslari, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimlari tomonidan o‘tkaziladi.

4.8 Jamiyatning korrupsiyaga qarshi faoliyatini qonunga muvofiqlash va rivojlantirish maqsadida mas’ul xodimlar uchun mo‘ljallangan korrupsiyaga

rivojlantirish maqsadida mas’ul xodimlar uchun mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish darslariga O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligidagi o‘zgarishlarni va korrupsiyaga qarshi tizimini muvofiqlash borasidagi ilg‘or xalqaro usullarni o‘rganish ham qo‘shiladi.

5 O‘qishda qatnashish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

5.1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish intizomi bajarilayotgani monitoringini o‘tkazadi va nazorat qiladi, shuningdek, Jamiyat xodimlarini bu masalada o‘qitish haqidagi ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimi ishlashi va rivojlanishi haqidagi hisobotda ko‘rsatadi, zarurat bo‘lganda hisobot tuzish uchun Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasidan ma’lumot oladi.

5.2 Korrupsiyaga qarshi o‘qishlar jadvali, davomad daftarlari va xodim o‘qiganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasida saqlanishi shart.

5.3 Jamiyat xodimlari boshqa tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurslarda o‘qiganligini tasdiqlaydigan sertifikatlar/hujjatlar nusxasi Jamiyatning Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasiga topshiriladi va xodimlarning shaxsiy ishlariga qo‘shilib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi belgilagan muddat davomida saqlanadi.

A-ilova

Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitishning taxminiy mavzulari

Mavzu	Komponentlar
Korrupsiyaning tabiati	- Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari; - Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida mazmuni; - Jamiyatdagi korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari	- Korrupsiyaga qarshi qonunchilik; - Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlar; - Korrupsiyaga qarshi xalqaro amaliyot.
Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash usullari	- Korrupsiyaga qarshi tizim elementlarini, shuningdek, Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy choralarini ko‘rib chiqish; - Jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va hal qilish; - Jamiyat xodimlarining axloqiy xulq-atvor qoidalari; - Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar hamda tarkibiy bo‘linmalarning vazifalari va vakolatlari; - Korrupsiyaviy huquqbuzarlik xavfi aniqlangan taqdirda harakatlar; - Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlar (xabarlarni yuborish kanallari, xabarlar mazmuni bo‘yicha tavsiyalar, xabarlarni ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiya xavfi va odatiy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar	- Jamiyatdagi xavf-xatarlar va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarining asosiy turlari; - Sovg‘alar va biznes mehmondo‘stlik belgilarini berish/olishda korrupsiya xavfi; - Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda korrupsiya xavfi. Korrupsiyaga qarshi shartlar. - Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirishda korrupsiya xavfi. - Kompaniya faoliyatidagi boshqa xavflar
Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik	- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik; - Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik; - Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi sud amaliyotini qayta ko‘rib chiqish.

Axborot ma’lumotlari

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan **ishlab chiqilgan**

Xizmat boshlig‘i A.Z. Raxmonov

Kelishilgan

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari B.X. Murodov

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari S.S. Artikov

Boshqaruv raisining investitsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari F.M. Qurbonov

Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Yuldashev

Iqtisodiyot va rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i P.N. Xidirov

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi
bosh buxgalteri S.N. Xolboyev

Xaridlar transformatsiya
ofisi boshlig‘i T.A. Rasulov

Sanoatda kooperatsiya aloqalarini
kengaytirish, mahalliylashtirish
va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i I.M. Begaliyev

Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish
boshqarmasi boshlig‘i I.I. Xamidov

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
boshqaruv raisi maslahatchisi O.A. To‘xtashev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i Sh.S. Axmedov

Norma nazoratchisi L.B. G‘oziyeva